

O'RTA OSIYO XALQLARI YOZUVI TARIXI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Davlatmurodova Farangiz Shavkat qizi

Termiz davlat universiteti Pedagogika va Ijtimoiy ish fakulteti

Kutubxona va axborot faoliyati yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410350>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha mavjud bo'lgan yozuv tizimlarining shakllanishi va evolyutsiyasi tadqiq etiladi.

Tadqiqot davomida oromiy, baqtriya, xorazm, sug'diy, turkiy-run, uyg'ur, arab, lotin va kirill yozuvlarining mintaqa madaniy-ma'rifiy hayotidagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada yozuv almashinuvlarining ijtimoiy-siyosiy va sivilizatsiyaviy sabablari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, yozuv tarixi, bitiktoshlar, sug'diy yozuv, run xati, arab alifbosi, madaniy meros.

Annotation. This article explores the formation and evolution of writing systems that existed in Central Asia from ancient times to the present day. During the research, the role of Aramaic, Bactrian, Khorezmian, Sogdian, Turkic-runic, Uyghur, Arabic, Latin, and Cyrillic scripts in the cultural and educational life of the region is analyzed. The scientific article explains the socio-political and civilizational reasons for the changes in writing systems.

Keywords: Central Asia, history of writing, inscriptions, Sogdian script, runic script, Arabic alphabet, cultural heritage.

Аннотация. В данной статье исследуются формирование и эволюция систем письма, существовавших в Средней Азии с древнейших времен до наших дней. В ходе исследования анализируется роль арамейского, бактрийского, хорезмийского, согдийского, тюркско-рунического, уйгурского, арабского, латинского и кириллического письма в культурно-просветительской жизни региона. В статье научно обоснованы социально-политические и цивилизационные причины смены систем письма.

Ключевые слова: Средняя Азия, история письма, надписи, согдийское письмо, руническое письмо, арабский алфавит, культурное наследие.

Kirish

Yozuv - insoniyat sivilizatsiyasining eng buyuk kashfiyoti bo'lib, u axborotni vaqt va makon aro uzatish, tarixiy xotirani saqlash vositasidir. O'rta Osiyo - qadimdan turli madaniyatlar, dinlar va tillar chorrahasi bo'lib kelgan. Bu zamin nafaqat buyuk ipak yo'lining markazi, balki o'nlab yozuv tizimlari shakllangan va amal qilgan noyob hududdir. O'rta Osiyo yozuvi tarixi shunchaki harflar o'zgarishi emas, balki bu mintaqadagi davlatchilik, diniy e'tiqodlar va intellektual salohiyatning ko'zglasidir.

Qadimgi Baqtriya bitiklaridan tortib, Turkiy xonliklarning ulug'vor bitiktoshlarigacha bo'lgan jarayon xalqimizning yuksak madaniy darajasidan dalolat beradi. Bugungi kunda ushbu tarixni o'rganish milliy o'zlikni anglash va madaniy merosimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini belgilashda dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'rta Osiyo yozuvi tarixi jahon va o'zbek olimlari tomonidan keng o'rganilgan. V.V. Bartold va S.P. Tolstov mintaqaning qadimgi yozma yodgorliklarini arxeologik va tarixiy kontekstda tadqiq etganlar.

V. Livshits sugʻdiy va xorazmshohlar yozuvi boʻyicha dunyo tan olgan mutaxassis hisoblanadi. Turkiy-run yozuvlarini oʻrganishda V.Radlov, S.Malov va oʻzbek olimi N.Rahmonovlarning xizmatlari beqiyosdir.

Arab imlosi va qoʻlyozma asarlar tahlili boʻyicha A.Semenov va P.Shamsiyev kabi tadqiqotchilar fundamental asarlar yaratganlar. Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, paleografik metod va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Yozuv tizimlari xronologik tartibda, ularning ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bogʻliqligi asosida tahlil qilindi.

Mintaqadagi har bir yozuv almashinuvi sivilizatsiyaviy oʻzgarishlar (islomlashuv, mustamlakachilik, mustaqillik) prizmasidan oʻtkazildi. Qadimgi davr yozuvlari (Mil.avv. IV – milodiy IV asrlar). Oʻrta Osiyoda yozuv madaniyati Ahamoniylar davridan boshlab keng tarqalgan oromiy yozuvi asosida shakllangan.

Baqtriya yozuvi: Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan soʻng mintaqada yunon alifbosi asosida shakllangan. Kushonlar saltanatida ushbu yozuv davlat tili darajasiga koʻtarilgan.

Xorazm yozuvi: Oromiy yozuvi negizida mil.avv. IV asrda shakllanib, milodiy VIII asrgacha (arab istilosigacha) foydalanilgan. Tuyamoʻyin va Tuproqqalʻadan topilgan hujjatlar buni isbotlaydi. Sugʻdiylar Buyuk Ipak yoʻlida asosiy savdogarlar boʻlgani sababli, ularning yozuvi butun Markaziy Osiyo uchun xalqaro muloqot vositasi vazifasini oʻtagan. Mugʻ togʻidan topilgan sugʻdiy hujjatlar oʻsha davrdagi yuksak karguzarlik madaniyatini koʻrsatadi. Ushbu yozuv keyinchalik uygʻur va moʻgʻul yozuvlarining asosi boʻlgan. V-VI asrlarda Turkiy xonlik davrida turkiy xalqlar oʻzlarining xos alifbosini yaratdilar. Oʻrxun-Enasoy bitiktoshlari (Kultegin, Bilga xoqon) turkiy tillarning fonetik va morfologik xususiyatlariga toʻla mos kelgan.

Bu yozuv xalqimizning "ona tili"dagi ilk mustaqil va ulugʻvor yodgorligidir. VIII asrdan boshlab islom dinining kirib kelishi bilan mintaqada arab yozuvi oʻrnashdi. Arab yozuvi deyarli 1200 yil davomida (XX asr boshigacha) Movarounnahrda ilmiy va madaniy asos boʻlib xizmat qildi. Imom Buxoriy, Xorazmiy, Beruniy va Alisher Navoiy kabi daholarning asarlari aynan shu imlodagi dunyoga keldi. Arab yozuvi xalqimizning islomiy qadriyatlari bilan uzviy bogʻlanib ketgan. 1929-1940 yillar: Shoʻro hukumati tomonidan siyosiy maqsadlarda lotin alifbosi (Yanalif) joriy etildi. Bu eski va yangi avlod oʻrtasida madaniy aloqani uzishga qaratilgan edi.

1940-1993 yillar: Kirill yozuvi majburan kiritildi. Bu davrda butun ilmiy va badiiy adabiyot rus alifbosi asosiga koʻchirildi. 1993-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosiga oʻtish haqida qaror qabul qilindi. Bu jarayon xalqimizning jahon hamjamiyatiga va turkiy dunyoga integratsiyalashuvini taʼminlash, raqamli texnologiyalar bilan ishlashni osonlashtirish maqsadini koʻzlaydi. Yozuv tizimlarining oʻzgarishi Oʻrta Osiyoda doimo siyosiy va diniy omillar bilan bogʻliq boʻlgan. Arab yozuviga oʻtish din va maʼrifat bilan, kirillga oʻtish esa totalitar tuzum siyosati bilan bogʻlangan edi. Hozirgi lotin yozuviga oʻtish esa milliy suverenitet va modernizatsiya ramzidir. Biroq, 1000 yillik arab yozuvidagi merosimizni yosh avlodga yetkazish muammosi haligacha dolzarb boʻlib qolmoqda.

Eski oʻzbek yozuvi - arab grafikasi asosida shakllangan va 11-asrdan 20-asrning boshlarigacha qoʻllangan oʻzbek yozuvi; arab alifbosidagi 28 ta harfga arab tilida boʻlmagan, lekin eroniy va turkiy tillarga xos boʻlgan tovushlarni ifodalash uchun yana 4 ta harf qoʻshish bilan shakllantirilgan. Ushbu harflar arab alifbosidagi tayyor harflarga qoʻshimcha nuqta yoki chiziq orttirish yoʻli bilan hosil qilingan va ularning har biri alifbo qatorida oʻziga asos boʻlgan harfdan keyin joylashtirilgan; ularning nomlanishi ham asos harflarning nomlanishiga moslashtirilgan. E.oʻyo.da arab yozuvining, arab alifbosidagi barcha harflarning yozilish

xususiyatlari, ularning qanchasi nechta shaklga ega bo'lishi, o'zidan keyingi harfga qo'shib yoki qo'shilmay yozilishi holatlari va boshqalar arab yozuvidagidek aynan qabul qilingan.

Alifboda harflar soni 32 taga yetgan bo'lsada, ularning asosiy shakllari 18 tani tashkil etadi, xolos; ko'p harflar bir-biridan ustiga yoki ostiga qo'yiladigan nuqtalar bilangina farqlanadi. E.o'.yo.da sof o'zbekcha (turkiy) so'zlardagi deyarli barcha unli va undosh tovushlar alohida harflar orqali ifodalanadi. Biroq o'zbek tilidagi arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarda undosh tovushlar va o, u, i cho'ziq unllarigina yoziladi; qisqa unllar talaffuz etilsada, ular alohida harfga ega bo'lmaydi.

Yozuvda aks etmaydigan qisqa unllarni va boshqalar fonetik holatlarni ko'rsatish uchun esa harakatlar deb ataladigan va tegishli undoshlar ustiga yoki ostiga qo'yiladigan 10 dan ortiq yordamchi belgilar: fatha, kasra, zamma (forscha nomlari: zabar, zer, pesh), tanvin, madd, tashdid, hamza va boshqalar mavjud (arab yozuvi, harakatlarning shakl va vazifalari haqida q. Arab yozuvi). E.o'.yoda I (alif) harfbelgisi asosan o, a tovushlarini, arabcha so'zlar boshida esa, qaysi harakat qo'yilishiga qarab, u, i, e tovushlarini ham bildirgan; (vov) harfbelgisi v undoshini, shuningdek, o'zbekcha so'zlar o'rtasida u, o' unllarini bildirgan; (yoy) harfbelgisi y undoshini hamda so'z o'rtasida i, e unllarini bildirgan; harf birikmasi o'zbekcha so'zlar boshidagi u, o' tovushlarini, harf birikmasi esa o'zbekcha so'zlar boshidagi i, e unllarini ifodalash uchun joriy etilgan. Arab tilida portlovchi bo'g'iz tovushini ifodalovchi s(ayn) harfbelgisi E.o'.yo.da arabcha so'zlarni yozishda an'ana sifatida alifbo qatoridan o'rin olgan: u alohida tovush tarzida emas, balki o'zidan keyin turadigan yoki o'qiladigan cho'ziq va qisqa unllar bilan qo'shib talaffuz qilinaveradi. E.o'.yo. 1920-21 yillarda bir qancha o'zbek ziyolilari, jumladan, Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" a'zolari tomonidan jiddiy isloh qilindi.

Bunda o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan 6 ta unli tovush uchun maxsus harflar joriy qilindi, faqat arabcha so'zlardagina uchraydigan, o'zbek tili uchun yot bo'lgan harflarini alifbodan chiqarish, harfning qo'llanishini chegaralash haqida qaror qabul qilindi. 1921-yil yanvarda bo'lib o'tgan Tilimlo qurultoyining materiallari ana shu islohgga amal qilib nashr etilgan dastlabki kitob bo'ldi. Shuni aytish kerakki, mazkur islohgacha Eski o'zbek yozuvida imlo, ya'ni so'zlarning to'g'ri yozilishida, diakritik va punktuatsion belgilarning ishlatilishida izchillik, barqarorlik bo'lmagan. Isloh natijasida yuqoridagidek kamchilik va nuqsonlar ma'lum darajada bartaraf bo'ldi. O'zbek yozuvi 1929-yilda lotin grafikasi, 1940-yilda rus grafikasi asosida shakllantirilgach, E.o'.yo.ni o'qisho'rganish nihoyatda sustlashdi, hatto bunga qarshiliklar ham bo'ldi; uni biluvchilar doirasi ancha toraydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu yozuvni o'rganishga keng imkoniyatlar berildi, uni o'rganish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunida ham arab alifbosini, ya'ni E.o'.yo.ni o'rganish va undan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinishi alohida qayd etilgan. Oromiy yozuvi - g'arbiy som yozuvlaridan biri; oromiylar miloddan avvalgi 1-ming yillikning boshlarida finikiy yozuvi asosida shakllantirgan kansonant yozuv.

Oromiylar finikiy yozuvining alifbo tarkibini o'zgartirmagan holda (oromiy alifbosi ham faqat undoshlarni ifodalovchi 22 harfdan iborat bo'lgan), unga ayrim uzgarishlar kiritganlar: harflarni tashkil etuvchi unsurlar sonini kamaytirish yoki un-surlar shaklini o'zgartirish orqali juda ko'p harflarning shakllarini soddalashtirganlar va yozuvni tez yozishga moslashtirganlar.

Oromiy yozuvida suzlar asosan ajratib yozilgan: dastlabki so'zlarni ajratuvchi belgilar - bir vertikal chiziq yoki nuqta qo'llangan, key-inchalik esa suzlar o'rtasida bo'sh joy qoldirish bilan so'zlar o'zaro ajratilgan.

Kushonlar yozuvi Oʻrta Osiyoda miloddan avvalgi 200-700-yillarda qoʻllangan. Bugungi kunga kelib, bir necha oʻnlab yozuvlar maʼlum, ular asosan qisqa soʻzlardan iborat.

Yozuvlar Afgʻoniston, Tojikiston va Oʻzbekiston hududidan topilgan. Qadimgi Xorazm yozuvi (ot) - Oʻrta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlaridan biri.

Xulosa

Oʻrta Osiyo yozuvi tarixi sivilizatsiyalarning uzluksiz zanjiridir. Har bir yozuv turi xalqimizning intellektual salohiyatini keyingi bosqichga olib chiqqan. Bugungi kunda yozuv islohoti shunchaki harf oʻzgarishi emas, balki milliy gʻoyani mustahkamlash, jahon axborot makonidan munosib oʻrin egallash demakdir. Qadimgi bitiktoshlardan lotin alifbosigacha boʻlgan yoʻlni oʻrganish bizga oʻzligimizni anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – M.: Nauka, 1963.
2. Ishoqov M. Qadimgi yozuv yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Rahmonov N. Turonning qadimiy yozuvlari. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2003.
4. Livshits V.A. Sogdiyskaya epigrafika Sredney Azii i Kazaxstana. – SPb., 2008.
5. Sodikov Q. Qadimgi turkiy yozuv. – Toshkent: ToshDSHI, 2010.
6. Karimov I. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
7. Ishoqov M.M. Qadimgi yozuv yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1991.
8. Livshits V.A. Ocherki istorii drevney pismennosti Sredney Azii. – Moskva: Nauka, 1962.